

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT SIYOSATI
VA BOSHQARUVI AKADEMIYASI**

“TASDIQLAYMAN”

**Ilmiy ishlar va xalqaro
aloqalar bo‘yicha prorektor
R. Shirinova**



2026-yil

**07.00.09 - “Davlat siyosati va boshqaruvi tarixi” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi
ta’lim institutiga kirish imtihoni**

DASTURI

Toshkent – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy-uslubiy kengashining 2025-yil 27-oktyabrdagi 2-sonli majlis bayonnomasi bilan ma’qullangan.

Tuzuvchilar:

- A.Umarov – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Ilmiy ishlar va xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- A.Yuldashev – Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori

Taqrizchilar:

- V.Qo‘chqorov – siyosiy fanlar doktori, professor
- M.Atamuratov – siyosiy fanlar doktori, dotsent

KIRISH

Mamlakatimizda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va samarali davlat siyosatini yuritishda yuqori malakali, keng dunyoqarashga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Davlat siyosati va boshqaruvi tarixi” ixtisosligi bo‘yicha oliy ta’limdan keyingi ta’lim institutiga qabul imtihonlari uchun ishlab chiqilgan mazkur dastur davlatchilik va boshqaruv tarixi sohasida chuqur bilimga ega tadqiqotchilarni saralab olishga qaratilgan.

Dasturda davlat siyosati va boshqaruvi tarixining shakllanish bosqichlari, turli davr va hududlardagi davlat boshqaruvi tizimlarining evolyutsiyasi, siyosiy institutlar, ma’muriy tuzilmalar hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni ilmiy-nazariy va tarixiy jihatdan qamrab olingan. Shuningdek, milliy davlatchilik an’analari, jahon tajribasi va zamonaviy ilmiy yondashuvlar o‘zaro qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Mazkur imtihon dasturi abituriyentlarning davlat siyosati va boshqaruvi tarixi bo‘yicha nazariy bilimlari, tahliliy fikrlash qobiliyati, tarixiy jarayonlarga ilmiy yondashuvi hamda mustaqil tadqiqot olib borish salohiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Dastur oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichida tahsil olish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni baholash mezonlarini belgilab beradi. Ma’lumki, turli xalqlar o‘z davlatchiligining shakllanishi bosqichini ijtimoiy, iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlariga bog‘liq holda turli tarixiy davrlarda bosib o‘tdilar. Qadimgi yozma manbalarning guvohlik berishicha, o‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchiligi tarixi qadim ildizlarga ega. O‘zbek xalqi ajdodlarining ilk davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni miloddan avvalgi ikkinchi ming yillikning o‘rtalarida boshlandi. Mana shu davrdan boshlab to bugungi kungacha o‘zbek davlatchiligi tarixida ajnabiy va mahalliy sulolalar hukmronlik qilib kelishdi. O‘zbekiston mustaqilligi qo‘lga kiritganidan so‘ng davlatchiligimiz tarixida mutlaqo yangi davr boshlandi.

O‘zbek xalqi tarixidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy rivojlanishda, xalqaro miqyosda katta mavqega erishildi, umuman har sohadagi yutuqlarda davlatning ahamiyati, ta’siri, o‘rni beqiyos bo‘lib kelgan. Shu sohalardagi jarayonlarni shakllantiradigan, boshqaradigan ham davlat edi. Buni biz jamiyatimiz har jihatdan yuksalgan Amir Temur davridagi davlatchilikning nufuzi orqali ko‘rishimiz mumkin. Va, aksincha, Rossiya imperiyasi bosqini arafasida siyosiy tarqoqlik sharoitida davlat asoslari nihoyatda susayib ketgan. Demak, tariximizda shunday davrlar bo‘lganki, buyuk davlat zaiflashib, hatto mustamlakaga aylanib qolgan davrlar ham bo‘lgan. O‘zbekiston davlatchiligi tarixini qadimgi davrlardan boshlab to bugungi kungacha o‘rganish O‘zbekiston hududida shu davr ichida mavjud bo‘lgan davlatlar tarixini qamrab oladi. O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o‘tmishning tarixiy tajribasi, o‘zbek xalqining qadimiy davlatchilik an’analari beqiyos ahamiyat kasb etishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning qator nutqlarida o‘z aksini topgan. Shundan kelib chiqqan holda, o‘zbek davlatchiligi tarixini xolisona, haqqoniy ravishda yaratish maqsadi belgilangan.

O‘zbekiston hududida davlatchilik va boshqaruv tarixi ham chuqur ildizlarga ega. Qadimgi Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm davlatlari, Turon va Temuriylar davlati, xonliklar hamda mustamlakachilik va mustaqillik davri davlat boshqaruvi tizimlari milliy davlatchilik an’analarning shakllanishida muhim o‘rin tutgan.

Davlat siyosati va boshqaruvi tarixini o‘rganish zamonaviy davlat qurilishi, islohotlar va samarali boshqaruv modellarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik uyushmalari (mil.avv. I mingyillikning birinchi yarmi)

O‘zbekistonda dastlabki davlat uyushmalarining tashkil topishi. O‘zbek davlatchiligiga oid ilk yozma manbalar. “Avesto”, Behistun va Naqshi Rostam qoyatoshlaridagi, Suza, Persyepoldan topib o‘rganilgan yozuvlar. Antik dunyo mualliflarining asarlarida o‘zbek davlatchiligi tarixi haqidagi ma’lumotlar. Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari. O‘zbekiston hududidagi ilk shaharlarning o‘zbek davlatchiligidagi o‘rni va ahamiyati.

Qadimgi davr davlatchiligi tarixi (mil.avv. IV-mil.IV asrlar)

Aleksandr Makedoniyalikning harbiy yurishlari va ulkan saltanatning barpo qilinishi. Salavkiylar davlati va uning xususiyatlari. Davlatning ma’muriy bo‘linishi, satrapliklar. Yunon-Baqtriya davlati, undagi boshqaruv tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot. Kushon podshohligining tashkil topishi. Kushonlar davlatida davlatchilik an’analari. Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati. Qang‘ davlati, uning ma’muriy-hududiy bo‘linishi. Dovon davlatining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni. Miloddan avvalgi IV-II asrlarda Xorazm davlati. Jonbosqal’a, Tuproqqal’a. Qang‘, Xorazm, Dovon davlatlari.

O‘zbekistonda ilk o‘rta asrlar davlatchiligi tarixi (V-VII asrlar)

Eftaliylar davlatida harbiy tuzum va davlat boshqaruvi. Eftallarda aholining ijtimoiy tarkibi. Eftallar va Sosoniylar munosabatlari. Turk hoqonligining tashkil topishi. Turk hoqonligida davlat boshqaruvi. O‘rta Osiyo Turk hoqonligi tarkibida. G‘arbiy va Sharqiy Turk hoqonligi. Zarafshon, Qashqadaryo, Amudaryo havzasida yuzaga kelgan 9 ta alohida mulkiy hududlar va ularning siyosiy mavqei. Xorazm davlati va Afrig‘iylar hukmronligi. So‘g‘diyona, Farg‘ona, Qang‘. Choch, Iloq va boshqa davlatlar. O‘rta Osiyo xalqlarining arab bosqinchilari tomonidan bosib olinishi.

IX-XII asr boshlarida o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi

IX-XII asrlarda Arab xalifaligi hukmronligiga qarshi milliy ozodlik kurashlarining kuchayishi. Bir qancha mahalliy sulolalar vakillari boshchiligida davlatlarning yuzaga kelishi. Xurosonda Toxiriylar davlati. Ismoil Somoniy va Somoniylar davlatining mustaqillikka erishuvi. Ismoil Somoniy islohotlari. Somoniylar davlatida boshqaruv tizimi, huquqiy munosabatlar. Movarounnahrda Qoraxoniylar hukmronligining o‘rnatilishi. Qoraxoniylar davlatida ijtimoiy tabaqalar, huquqiy munosabatlar. Qoraxoniylarning Qoraxitoylar va Saljuqiylar bilan olib borgan kurashlari. Movarounnahrda Qoraxitoylar davrida markazlashgan boshqaruv tizimi o‘rnida alohida mulk boshqaruvi tizimining o‘rnatilishi. Boshqaruvdagi ma’muriy idoralar – devon va dargoh.

Xorazmshohlar davlati

Xorazm davlatining mustaqillikka erishishi. Xorazmshohlar Anushteginiy lar. Xorazmshohlar davlatida markaziy davlat boshqaruvi tizimi – “Al-majlis ul oliy al faxri at-toji”. Davlat boshqaruvida amaldorlar vazifalari. Xorazmshohlar davlatida ijtimoiy va huquqiy munosabatlar.

Mo‘g‘ullar istibdodi davrida o‘zbek davlatchiligi tarixi

Mo‘g‘ullar davlatiga asos solinishi va harbiy yurishlari. Mo‘g‘ullar tomonidan O‘rta Osiyo hududlarining bosib olinishi. Mo‘g‘ullar hukmronligi o‘rnatilgan hududlarda to‘rt ulusning vujudga kelishi. Chig‘atoy ulus iva undagi boshqaruv tartiblari. Mahmud Yalavoch. Mas‘udbekning pul islohotlari. Kebekxon islohotlari. XIV asr 40-yillarida Chig‘atoy ulusining

ikkiga bo‘linib ketishi. Soliq turlari. Chig‘atoy ulusining yemirilishi. Mustaqil bekliklarning tashkil topishi.

Amir Temur va Temuriylar davlatchiligi tarixi (XIV-XVI asrlar)

Movarounnahrda Amir Temur hukmronligining o‘rnatilishi. Amir Temurning Movarounnahrni birlash-tirish uchun olib borgan siyosati va kurashlari. Amir Temurning buyuk saltanat barpo qilish yo‘lida uch yillik, besh yillik va yetti yillik yurishlari. To‘xtamishga qarshi kurashlar. Anqara jangi. Amir Temur davlatidagi boshqaruv tizimi. Davlatchilikning 8ta asosi.

O‘zbek davlatchiligi tarixida yangi bosqichning boshlanishi. Temuriylar davlatida iqtisodiy hayot. Ma‘muriy-boshqaruv tizimining harbiy-siyosiy xarakteri. Temur va Temuriylar davrida soliq turlari. Amir Temur davlatida huquqiy munosabatlar. “Temur tuzuklari” va uning davlatchilik taraqqiyotidagi ahamiyati. Amir Temur vafotidan so‘ng hukmronlik qilgan temuriy shahzodalarning davlat boshqaruvidagi xatolari. Temuriylar davlatining inqirozga uchrashi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Amir Temur shaxsi va faoliyatining haqqoniy, xolis va munosib e‘tirof etilishi va uning ahamiyati.

XVI-XIX asr birinchi yarmida o‘zbek davlatchiligi tarixi

Dashti Qipchoqda XV asr oxiri – XVI asr boshlarida yuz bergan siyosiy voqealar. Shayboniylar davlatining tashkil topishi.

Shayboniylar sulolasi davrida o‘zbek davlatchiligi. Shayboniylar davlatining boshqaruv tizimi. Abdullaxon tomonidan amalga oshirilgan harbiy islohotlar.

Ashtarxoniyalar (Joniyalar) sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi. Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligida markaziy boshqaruv, ijtimoiy tuzum, huquqiy munosabatlar.

Buxoroda mang‘it amirlari tomonidan hokimiyatning egallanishi. Buxoro xonligida ichki kurashlar, davlat yaxlitligini saqlab qolish uchun kurashlar. Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan munosabatlar. Buxoro amirligida boshqaruv tizimi va huquqiy munosabatlar.

Rossiya imperiyasi bilan munosabatlarning keskinlashuvi. Qo‘qon xonligining tashkil topishi. Xonlikda ma‘muriy bo‘linish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum.

Xiva xonligining tashkil topishi. Xiva xonligining ma‘muriy bo‘linishi. Xonlikda iqtisodiy hayot va huquqiy munosabatlar. Davlat boshqaruv tartiblari.

Mustaqil O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi yangi bosqich

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning ahamiyati.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi. Siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi islohotlar, ularning natijalari va ahamiyati. Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi. Xalq ta‘limi, fan va madaniyat. Ma‘naviyat va ma‘rifat, milliy va diniy an‘analar, ma‘naviy qadriyatlarning tiklanishi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan e‘tirof etilishi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi.

**07.00.09 - “Davlat siyosati va boshqaruvi tarixi”
ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon
SAVOLLARI**

1. O‘zbekiston hududida ilk davlatchilikka o‘tish jarayonlarining boshlanishi.
2. O‘zbekiston hududida ilk davlatlarning joylashuv xususiyatlari va o‘ziga xos belgilari.
3. O‘zbekistonda dastlabki davlat uyushmalarining tashkil topishi.
4. Katta Xorazm va Qadimgi Baqtriya davlatlari.
5. Ilk shaharlarning o‘zbek davlatchiligidagi o‘rni va ahamiyati.
6. Aleksandr Makedoniyalik va Salavkiylar davlati
7. Yunon-Baqtriya davlati, undagi boshqaruv tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayot.
8. Kushonlar davlatida davlatchilik an‘analari. Buyuk Ipak yo‘lining ahamiyati.
9. Qang‘, Dovon davlatining o‘zbek davlatchiligi tarixidagi o‘rni.
10. Miloddan avvalgi IV-II asrlarda Xorazm davlati.
11. IX-XII asrlarda mahalliy sulolalar vakillari boshchiligida davlatlarning yuzaga kelishi.
12. Ismoil Somoniy va Somoniylar davlati.
13. Qoraxoniylar davlati.
14. Movarounnahrda Qoraxitoylar davrida markazlashgan boshqaruv tizimi o‘rnida alohida mulk boshqaruvi tizimining o‘rnatilishi.
15. IX-XII asrlarda mahalliy sulolalar vakillari boshchiligida davlatlarning yuzaga kelishi.
16. Ismoil Somoniy va Somoniylar davlati.
17. Qoraxoniylar davlati.
18. Movarounnahrda Qoraxitoylar davrida markazlashgan boshqaruv tizimi o‘rnida alohida mulk boshqaruvi tizimining o‘rnatilishi
19. Xorazm davlatining mustaqilikka erishishi.
20. Xorazmshohlar Anushteginiylar.
21. Xorazmshohlar davlatida ijtimoiy va huquqiy munosabatlar.
22. Mo‘g‘ullar tomonidan O‘rta Osiyo hududlarining bosib olinishi.
23. Chig‘atoy ulusi va undagi boshqaruv tartiblari, islohotlar va soliq
24. Chig‘atoy ulusining yemirilishi. Mustaqil bekliklarning tashkil topishi
25. Movarounnahrda Amir Temur hukmronligining o‘rnatilishi.
26. Amir Temurning Movarounnahrni markazlashtirilgan davlat barpo etishi.
27. Amir Temur davlatidagi boshqaruv tizimi. Davlatchilikning 8ta asosi.
28. Temuriylar davlatida iqtisodiy hayot.
29. “Temur tuzuklari” va uning davlatchilik taraqqiyotidagi ahamiyati.
30. Temuriylar davlatining inqirozga uchrashi.
31. Shayboniylar sulolasi davrida o‘zbek davlatchiligi.
32. Ashtarxoniylar (Jonilar) sulolasi hukmronligining o‘rnatilishi.
33. Buxoroda mang‘it amirlari tomonidan hokimiyatning egallanishi.
34. Qo‘qon xonligida ma‘muriy bo‘linish, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum.
35. Xiva xonligida davlat boshqaruv tartiblari
36. Osiyo xonliklarining chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va mustamlakaga aylantirilishi.
37. Turkiston general-gubernatorligida boshqaruv tizimi.
38. Buxoro va Xiva xonliklarining yarim mustamlakaga aylantirilishi va uning milliy davlatchilik boshqaruvi an‘analariga ta‘siri.

39. Sovet hokimiyati boshqaruv usullari va xususiyatlari.
40. Jadidlarning O‘zbekistonda boshqaruv tizimini islox etish bo‘yicha takliflarining mazmun-mohiyati.
41. “Yosh buxoroliklar”ning jamiyat boshqaruvini isloh qilish dasturi
42. Turkiston muxtoriyati va uning o‘zbek davlatchiligidagi ahamiyati.
43. Sovetlar davrida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish. O‘zSSRning tashkil etilishi.
44. XX asr 80-yillaridagi siyosiy tanglik va inqiroz jarayonlari davomida O‘zbekistondagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahvol.
45. O‘zbekistonning mustaqillik uchun olib borgan siyosati.
46. O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi.
47. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li.
48. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarining barpo etilishi.
49. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishi.
50. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Masson V.M. Altyn – deve // Tr. YUTAKE. T. XVIII. – L.: Nauka, 1981. –329 s.
2. Лисисына Г.Н. Становление и развитие Фошаемого земледелия в Южной Туркмении. – М.: Наука, 1978. – С. 215.
3. Gardin J. – C., Lyonnet B. La protection archeologique de la Bactriane orientale (1974 - 1978): premiers rezultats // Mesopotamia. 1978 – 1979/ Vol. XIII – XIV. – Pp. 99 – 154.
4. Исаков А.И. Саразм: новый раннеземледельческий памятник Средней Азии // СА. – М., 1986. №1. – С. 152 – 157.
5. Frankfort H. – P. Tradition harappeene et innovation bactrienne a’shortughai // L’archelogue de la Bactriane ancienne. – Paris, 1985. – Pp. 95-104.
6. Сарианиди В.И. Задолго до Заратуштры. – М.: Старый сад, 2010. – С. 16-18.
7. Мамедов М. Древняя архитектура Бактрии и Маргианы. – Ашхабад, 2003. – С. 116 – 117.
8. Markaziy Osiyo madaniy merosi Yaponiya muzeylarida. – Toshkent, 2019. – B. 452.
9. Abdullayev O‘.I. O‘rta Osiyoda ibtidoiy jamoa tuzumi va ilk davlatchilik tarixi. – Toshkent, 2019. – B. 45-116.
10. Сарианиди В.И. Маргуш. Древневосточное сарство в старой делте реки Мургаб. — Ашгабат, 2002.
11. Sagdullayev A.S., Xolmatov N.O‘., Abdullayev O‘.I. Markaziy Osiyoda tarixiy – madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent: Universitet, 2020. – B. 162-163.
12. Askarov A.A., Shirinov T. Sh. Rannyaya gorodskaya kultura epoxi bronzy yuga Sredney Azii. – Samarkand, 1993.
13. Xuf D., Shaydullayev Sh. Nekotorye rezultaty rabot uzbeksko – germanskoj ekspeditsii na gorodiще Djarkutan // IMKU. Выр.30. - Samarkand, 1999. – S. 19-26.
14. Sagdullayev A.S., Xolmatov N.O‘., Abdullayev O‘.I. Markaziy Osiyoda tarixiy – madaniy viloyatlarning shakllanishi... – B. 213, 232.
15. Fray R. Naslediye Irana/Per. s. angl. V.Livshitsa i Ye.V.Zeymalya. – М.: Nauka,1972.– S.66-68,315-316;
16. Бойс М. Зороастрийсы. Верования и обычаи / Пер. с англ. И.М.Стеблин – Каменского. – М.: Наука, 1982. – С.155, 163-164.
17. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining transformatsiyasi — monografiya. Toshkent, 2020–2024.
18. Milliy davlatchilik tarixi va boshqaruv an’analari — jamoaviy monografiya. Toshkent, 2021.
19. Yangi O‘zbekiston: davlat siyosati va boshqaruv modeli — ilmiy to‘plam. Toshkent, 2022.
20. O‘zbekistonda davlat xizmati tarixi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari. Toshkent, 2023.

Internet resurslari

1. Internet resurslari
2. <http://www.lib.socio.msu.ru>
3. <http://www.socioline.ru>
4. <http://www.socio.rin.ru>
5. <http://www.sociologos.narod.ru>
6. <http://www.socionet.narod.ru>